

**INSON HUQUQLARINI HIMoya QILISH, DAVLAT RIVOJI UCHUN QO'YILGAN  
ENG KATTA QADAMDIR**

**Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li**

*Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

**Ibragimov Jahongir Toshniyozovich**

*Ilmiy rahbar*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, inson huquqlari, ularni qonunda muvofiqlashtirish uchun qilinga hatti – harakatlar, ijtimoiy yordamlar berish, qonun oldida hammani tenglashtirish va 2 – jahon urushidan so'ng tashkil topgan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" haqida ma'lumotlar keltirilgan. Insonlarni tinch va osoyishta hayot kechirishlari davlatning rivoji uchun juda katta ahamiyat kasb etishi ham shular jumlasidandir.*

**Kalit so'zlar:** *inson, huquq, fuqoro, jamiyat, davlat, siyosat, ijtimoiyadolat, BMT, deklaratsiya, himoya, ijtimoiy yordam, sotsium, qonun.*

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о правах человека, действиях, предпринятых для их гармонизации в законодательстве, предоставлении социальной помощи, равенстве всех перед законом, а также «Всеобщей декларации прав человека», созданной после Второй мировой войны. Один из них заключается в том, что мирная и мирная жизнь людей очень важна для развития государства.

**Ключевые слова:** человек, право, гражданин, общество, государство, политика, социальная справедливость, ООН, декларация, защита, социальная помощь, общество, закон.

**Abstract:** *This article provides information about human rights, actions taken to harmonize them in law, providing social assistance, making everyone equal before the law, and the "Universal Declaration of Human Rights" created after World War II. One of them is that the peaceful and peaceful life of people is very important for the development of the state.*

**Key words:** *human, law, citizen, society, state, politics, social justice, UN, declaration, protection, social assistance, society, law.*

Azal-azaldan davlatlar rivojlanishi uchun, fuqorolarning tinch, totuv va baxtli hayot kechirishi uchun ko'plab sharoitlar yaratib kelishgan. Ba'zilari urushlar orqali hududini kengaytirish, davlat byudjetini bo'yitish orqali xalqini farovonlik tomon yetaklasa, yana boshqalari esa turli xil qonunlar, huquq va erkinliklar joriy qilish orqali o'z xalqini roziligidagi ershishmoqchi bo'lishgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, urushlar natijasida millionlab odamlar vafot etishgan. Yoki, ba'zi bir zolim podshoholar va prezidentlarning hukmlari butun xalqni azob uqubatlarga solib qo'ygani sir emas. Ular orasidaadolat istabgina bu ishni qilganlari ham, ammo yaxshilik va yomonlik doim birga hamrohdir. Inson huqulari har doim himoya qilinib turgan emas. Oddiy bir

misol keltiradigan bo'lsak: "Buyuk Xitoy devori" haqida kim qanday ma'lumotlarga ega? Kitoblarda yozilishicha devor qurilishida og'ir mehnatdan vafot etganlarni, shu devor orasiga dafn etishgan. Endi aytingchi, miloddan avvalgi 4-3 asrlarda qanday inson huquqlari bo'lgan bo'lishi mumkin. Inson huquqlari o'zi nima? U nima uchun kerak?

Inson huquqlari – bu insonning tug'ilishidan to'g'ishidan vafot etgunga qadarbutun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu huquqlar millati jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, yoki bosjqa huquqiy maqomidan qat'iy nazar, hech qanday kamsitilishlarsiz barcha uchun xosdir.

Inson huquqlari quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Universallik – barcha bir xil darajada inson huquqlariga ega;

Ajralmaslik – ularni hech qachon tortib olish mumkin emas, lekin ba'zida ularni cheklash mumkin — masalan, agar shaxs qonunni buzsa yoki davlat xavfsizligi masalalari uchun;

Bo'linmaslik – ma'lum bir huquqlar to'plamidan ikkinchisiz to'liq foydalanish mumkin emas;

O'zaro bog'liqlik – ma'lum bir huquqni berish yoki uni buzish boshqa huquqlarga ta'sir qilishi mumkin;

Tenglik – barcha insonlar o'zlarining qadr-qimmati va huquqlarida tengdir;

Kamsitmaslik – har bir inson irqi, tanasining rangi, jinsi, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar inson huquqlariga ega.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda Fransyaning Parij shahridagi Shaylo saroyida qabul qilingan. Ushbu hujjatning tayyorlanishiga bevosa sabab Ikkinchi jahon urushi davrida dunyo xalqlari boshdan kechirgan ofatlar va vahshiy harakatlar edi. Ushbu hujjat alohida madaniyatlar, millatlar va mintaqalar bilan cheklanmagan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan hamda irqi, rangi, dini, jinsi, tili, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki e'tiqodidan qat'i nazar, har bir inson ega bo'lgan daxlsiz huquqlarni e'lon qiladi. milliy kelib chiqishi.ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki insoniyatga mansubligi sababli boshqa maqom. Deklaratsiya 30 moddadan iborat.

1946 yil iyun oyida, ya'ni jahon tarixidagi eng halokatli mojaror tugaganidan so'ng, yaqinda tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi Inson huquqlari bo'yicha komissiyani tuzdi, uning tarkibiga turli davlatlar vakili bo'lgan va turli siyosiy qarashlarga rioya qiluvchi 18 a'zo kirdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining doimiy organlaridan biriga aylangan ushbu komissiyaga tegishli hujjatni shakllantirish va tayyorlash vazifasi yuklatildi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining moddalari matnini tuzish uchun Komissiya maxsus tahririyat qo'mitasini tuzdi.<sup>11</sup>

<sup>11</sup>[https://books.google.co.uz/books/about/Universal\\_Declaration\\_of\\_Human\\_Rights\\_Ru.html?id=PL7oDwAAQBAJ&printsec=frontcover&source=k\\_p\\_read\\_button&hl=ru&newbks=1&newbks\\_redir=0&gboevn=1&ovdme=1&redir\\_esc=y#v=onepage&q&f=false](https://books.google.co.uz/books/about/Universal_Declaration_of_Human_Rights_Ru.html?id=PL7oDwAAQBAJ&printsec=frontcover&source=k_p_read_button&hl=ru&newbks=1&newbks_redir=0&gboevn=1&ovdme=1&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false)

Ko'pchilik bu haqida eshitgan. Qonli urushlarni yakun topgandan so'ng Birlashgan Millitlar Tashkiloti tuzildi. Buning asosiy maqsadi nafaqat davlatlar orasida tinchlikni o'rnatish, balki butun dunyo aholisini muhofaza qilishga qaratilgan edi. 2-jahon urushidan so'ng bu ko'p davlatlar og'ir vaziyatda qolib ketishdi. Ayniqsa nogiron urush qatnashchilari, yetim qolgan bolalar, otasidan, aka – ukasidan ayrilgan xotin – qizlarga yordam berishlishi kerak bo'lgan bir og'ir vaziyat bo'lib turgan edi. Va, 1945 – yil 24 – oktyabrdagi BMT tuzildi.

O'z-o'zidan ayonki, inson huquqlarini himoya qilish va tushunish pirovard natijada ko'p jihatdan milliy darajadagi rivojlanish va mexanizmlarga bog'liq. Milliy darajada mavjud bo'lgan qonunlar, siyosatlar, tartiblar va mexanizmlar har bir mamlakatda inson huquqlaridan foydalanishning kalitidir. Shuning uchun inson huquqlari milliy konstitutsiyaviy va huquqiy tizimlarning bir qismi bo'lishi, adliya mutaxassislari inson huquqlari standartlarini qo'llash uchun o'qitilishi va inson huquqlarining buzilishi qoralanishi va jazolanishi juda muhimdir. Milliy standartlar mintaqaviy va xalqaro darajadagi protseduralarga qaraganda ko'proq to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi va milliy protseduralar qulayroqdir.<sup>12</sup>

Inson huquqlarini himoya qilish faqat huquqshunoslar tomonidan emas, balki ijtimoiy ish kasbi mutaxassislari tomonidan ham amalga oshiriladi. Ijtimoiy soha jamiyatni maksimal darajada muommolarini aniqlab ularga yechim topadigan kasb turidir. Uning mutaxassislari esa har qanday muommosi bor insonlarga yoradam berishadi. Masalan, nogironligi bor shaxsga ham moddiy, ham ma'naviy, psixologik, ham pedagogik yordam berishadi. Nima uchun? Albatta, jamiyatning taraqqiyoti uchun. Jamiyatimiz taraqqiy etishi uchun shu jamiyatning a'zolarida muommolar bo'lmasligi kerak. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy ish xodimlari insonlarga o'z huquq va erkinliklarini bilishga yordam berishadi. Bu esa aholida siyosiy savodxonlikni oshirishga yordam beradi. Ijtimoiyadolatni shakllantirishga sababchi bo'ladi.

Ijtimoiyadolat o'zi nima? Bu barcha insonlarning huquq va erkinliklarini jamiyat va qonun oldida tenglashtirishdir.

Adolat jamiyatda oltita asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etadi. Ikkinchidan, turli ijtimoiy guruh va sinflar manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlaydi, ular orasidagi muvozanatni saqlab turadi. Uchinchidan, jamiyatdagi mulkchilik munosabatlarini, ishlab chiqarish faolligini oshiradi. To'rtinchidan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Beshinchidan, voqelikda keng ildiz otgan, lekin ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'layotgan munosabatlarni bartaraf etishga da'vat qiladi. Oltinchidan, odamlarda kelajakka ishonch tuyg'usini uyg'otadi va kuchaytiradi.

U jamiyat (sotsium) hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan sotsial qadriyatdir, shu sabab "ijtimoiyadolat" tushunchasidan foydalaniladi.<sup>13</sup>

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, odamzodni Alloh aziz qilib yaratdi. Zabonli, fikrli, aql – idrokli qilib boshqa maxluqotlardan ustun qilib qo'ydi. Lekin biz turli xil

<sup>12</sup> <https://www.coe.int/en/web/compass/legal-protection-of-human-rights>

<sup>13</sup> <https://www.oyina.uz/uz/teahause/1222>

urushlar yoki shunga o'xshagan voqealiklarni yaratib bir – birini qadrsizlantirib qo'yimoqda. Biz ijtimoiy soha mutaxassislari bunday vaziyatlardan inson huqularini har tomondan himoya qilib, ularni barqaror hayot kechirishlari uchun tish – tirnog'imiz bilan harakat qilishimiz, ularni huquq va erkinliklarini to'liq ta'minlanishini nazorat qilishimiz lozimdir.

**FODALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevori" – Shavkat Mirziyoyev, 2021.
2. [https://books.google.co.uz/books/about/Universal\\_Declaration\\_of\\_Human\\_Rights\\_Ru.html?id=PL7oDwAAQBAJ&printsec=frontcover&source=kp\\_read\\_button&hl=ru&newbks=1&newbks\\_redir=0&gboemv=1&ovdme=1&redir\\_esc=y#v=onepage&q&f=false](https://books.google.co.uz/books/about/Universal_Declaration_of_Human_Rights_Ru.html?id=PL7oDwAAQBAJ&printsec=frontcover&source=kp_read_button&hl=ru&newbks=1&newbks_redir=0&gboemv=1&ovdme=1&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false)
3. "Tarix Qadimgi Dunyo" – A.S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiy – 2017.
4. <https://www.coe.int/en/web/compass/legal-protection-of-human-rights>
5. <https://www.oyina.uz/uz/teahause/1222>